

INTELLEKTUAL MULK HUQUQIDA PARALLEL IMPORT

Mardonova Marjona Saydullo qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

Email: mardonovamarzona15@gmail.com

Parallel import — bu intellektual mulk obyektlari bilan himoyalangan mahsulotlarning tovar belgilari egasining roziligisiz, lekin qonuniy ishlab chiqarilgan va xorijda sotuvga chiqarilgan holda ichki bozorga olib kirilishi. Bu hodisa mualliflik huquqlari, patentlar va tovar belgilarining eksklyuzivligini bozordagi raqobat va iste'molchilar manfaatlari bilan muvozanatlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Parallel import tushunchasining markazida huquqning tugashi (exhaustion) doktrinasini turadi. Bu doktrina mahsulot birinchi marta qonuniy sotilgandan keyin intellektual mulk egasining unga bo'lgan nazorat huquqi saqlanib qoladimi, degan savolga javob beradi. Milliy, mintaqaviy va xalqaro tugash modellari mavjud bo'lib, ularning tanlovi parallel importga bo'lgan yondashuvni belgilaydi.

Yevropa Ittifoqi mintaqaviy tugash modelini qabul qilgan. AQSHda mualliflik huquqlari doirasida xalqaro tugash tan olingan bo'lsa-da, tovar belgilari va patentlar bo'yicha cheklovlar mavjud. Yaponiya esa xalqaro tugash prinsipini sud qarori bilan tan olgan. Hindiston va Janubiy Afrika kabi davlatlar esa parallel importga ijobiy yondashgan, Braziliya va Xitoyda esa cheklovlar mavjud.

Parallel importning bir qancha ijobiy tomonlari mavjud, xususan, mahsulot narxlarining pasayishi, raqobatni oshishi, iste'molchilar tanlovi kengayadi. Salbiy

tomonlari esa quyidagilar: brend obro'siga zarar, mahsulot sifati nazorati yo'qligi, kafolat va xizmat ko'rsatish muammolari.

Paralel import "kulrang bozor" deb ham atalishi mumkin, ba'zida esa kontrabanda tovarlari savdosi sifatida ham ta'riflanadi. Uning mavjud bo'lishining asosiy sababi shundaki, parallel importyor ma'lum tovarlarga oid xarajatlar yoki narxlardagi farqlar orqali foyda ko'radi. Ushbu tovarlar rasmiy bo'lmagan taqsimot, tashish yoki savdo kanallari orqali olinadi, ya'ni ular qonuniy bo'lishi yoki qonuniy bo'lmasligi mumkin. Bu yerda "qonuniy" so'zi nafaqat qonun va qoidalarga, balki shartnomadagi xususiy kelishuvlarga ham taalluqlidir. Ba'zi hollarda, parallel import bo'yicha faoliyatlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan ataylab amalga oshiriladi, ya'ni import qiluvchi davlatlar qonunlarini chetlab o'tgan holda bozorni kengaytirish maqsadida. Ba'zi parallel import faoliyat turlari qonuniy hisoblangan bo'lsa-da, boshqalari mamlakat ichki qonunchiligini va normalarini buzishi mumkinligi sababli, ayniqsa intellektual mulk bilan bog'liq hollarda, parallel importning har bir holatiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Masalan, iste'molchilarga mo'ljallangan ko'pchilik import avtomobillari odatda dilerlar orqali sotiladi va servis xizmati ko'rsatiladi, ularning narxi ko'pincha ikki barobarga oshiriladi, ba'zida esa xalqaro bozorlardagidan ham yuqori bo'ladi. Bunga asosiy sabab sifatida bojxona bojlari yoki qo'shimcha transport xarajatlari ko'rsatiladi.

Narxlarning oshishiga monopol narx belgilash, ishlab chiqarish hajmi, mahsulotning bozor pozitsiyasi kabi boshqa omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan parallel import, umuman

olganda, intellektual mulk egalarining huquqlarini buzish hisoblanadi. Biroq, agar mahsulot juda oz miqdorda ishlab chiqarilgan bo'lsa va shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lsa, bu holatda javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

Aksincha, agar bunday mahsulotlar tijorat maqsadlarida ishlatilsa, huquqbuzarlik yuzaga keladi va huquq egasi tomonidan javobgarlikka tortilishi mumkin. Bunday holatlarda mahsulotni olib kirish uchun litsenziya talab etiladi (albatta, bu parallel importyorlar uchun umuman foydali emas).

Shu bilan birga, bunday import dastlabki ishlab chiqaruvchilar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin, bu esa quyidagilarga olib keladi:

- ishlab chiqaruvchilarning umumiy iqtisodiy foydasining oshishiga;
- muomaladagi xarajatlar yo'qotilishi hisobiga iste'molchilar uchun narxlarning pasayishiga;
- rasmiy dilerlik markazlaridan tashqarida mahsulot sotilishi tufayli noqulay servis xizmatiga.

Resurslarning tugashi doktrinasi, ehtimol, parallel import muammosida markaziy o'rinni egallaydi, biroq bu doktrina haddan tashqari ortiqcha bo'lib, muammolardan ko'ra ko'proq muammo tug'diradi. Mazkur doktrina AQSh Oliy sudi tomonidan 1873 yilda ko'rib chiqilgan "Adams vs. Burke" ishida yuzaga kelgan. Unda shunday deyiladi: patentlangan mahsulot sotilgach va patent egasi litsenziya to'lovlarini olgach, mahsulotdan foydalanish va uni qayta sotish bo'yicha mutlaq huquq xaridorga o'tadi, ya'ni patent egasining foydalanish va sotish huquqi "tugagan" hisoblanadi.

O'zbekiston qonunchiligida parallel import aniq tartibga solinmagan. Tovar belgilariga oid qonun huquqning tugashi haqida to'g'ridan-to'g'ri normalarni o'z ichiga olmaydi. Bu esa huquqni qo'llashda noaniqlik va muammolarga olib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosa va takliflarni keltirib o'tish mumkin:

1. Qonunchilikka huquqning tugashi prinsipini kiritish.
2. Import qilinayotgan mahsulotlar uchun sifat va yorliqlash talablarini joriy etish.
3. Bojxona xodimlarini parallel import va qalbaki mahsulotlar o'rtasini ajrata olishi uchuno'qitish.
4. Yaponiya tajribasi asosida gibrid modelni joriy etish.

Xulosa o'rnida shuni aytshim mumkinki, parallel import — global savdo va intellektual mulk huquqlari chorrahasida joylashgan murakkab institutdir. O'zbekiston ushbu yo'nalishda xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda huquqiy bazasini isloh qilish orqali iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishi va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ghosh, S. (2015). Parallel Imports in a Globalized World: Policy, Law, and International Trade. *Journal of Intellectual Property Law & Practice*, 10(8), 601–610.
2. Dinwoodie, G., & Dreyfuss, R. (2012). *A Neofederalist Vision of TRIPS: The Resilience of the International Intellectual Property Regime*. Oxford University Press.
3. Kur, A., & Dreier, T. (2013). *European Intellectual Property Law: Text, Cases and Materials*. Edward Elgar Publishing.
4. Maskus, K. (2000). *Parallel Imports in Pharmaceuticals: World Bank Policy Research Working Paper*.
5. *Kirtsaeng v. John Wiley & Sons, Inc.*, 568 U.S. 519 (2013).
6. WIPO (2020). *Intellectual Property and International Trade*. www.wipo.int
7. O'zbekiston Respublikasining «Tovar belgilar, xizmat ko'rsatish belgilar va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi Qonuni.